



**SHARQIY TURKISTON XIX ASRNING IKKINCHI YARMI —
XX ASR BOSHLARIDA INGLIZ-RUS RAQOBATI TIZIMIDA:
GEOSIYOSIY OMILLAR VA IQTISODIY EKSPANSIYA**

Nilufar Mirzaitova

Mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, mirzaitovanilufar@gmail.com

XIX asrning o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi o'z tovarlari uchun yangi bozorlar qidirish maqsadida O'rta Osiyoning ichkarisiga faol kirib borishni boshlaydi. Rossiya imperiyasining iqtisodiy sabablaridan biri — G'arbiy Evropa bozorlarining arzonroq fabrikalar mahsulotlari bilan to'lib borishi va Rossiya ichki bozorida aholining xarid qobiliyati zaiflashib qolishi oqibatida yuzaga kelgan haddan tashqari ishlab chiqarish muammosi sabab bo'lgan edi. Ayniqsa, AQShdagi (1861-1865 yillar) fuqarolar urushi tufayli yuzaga kelgan global paxta inqirozi Rossiyani o'z yengil sanoatini yangi xomashyo manbalari va tayyor mahsulot sotish bozorlarini qidirishga majbur qilib qo'yadi. Ayni shu davrda Sharqiy Turkistonda (Sin imperiyasining g'arbiy viloyati) o'ta keskin siyosiy vaziyat yuzaga kelishi natijasida mintaqa aholisining Sin sulolasi zulmiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari oqibatida 1864-yili Yoqub-bek rahbarligida Yettishahar mustaqil davlati tashkil topadi. Sharqiy Turkiston faqatgina mahsulot sotish bozori emas, balki ikki qudratli imperiya — Rossiya va Britaniya uchun strategik tayanch nuqtaga va raqobat markaziga aylanib qoladi. Britaniya o'zining asosiy tijorat manbai bo'lgan Hindiston chegaralarini himoya qilish va ruslarning Kashmir shimoliga yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Yettishahar hukmdori Yoqub-bek esa o'z davlatining geografik joylashuvini inobatga olgan holda, dastlab Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashish yo'llarini izlaydi. Yangi tashkil topgan Yettishahardavlati uchun yirik davlatlar tomonidan tan olinish juda ham muhim edi. 1867-yil yozida u rus polkovnigi V.A. Poltoratskiy elchilarini qabul qilib, savdo aloqalarini yo'lga qo'yishga tayyorligini bildirgan holda o'zining shaxsiy kotibi To'ra Oxunni Verniy (hozirgi Olma-Ota) shahriga yuboradi. Poltoratskiy o'z hisobotlarida Qashg'ar bilan ochilgan savdo yo'llari Rossiya uchun nihoyatda foydali ekanini ta'kidlagan. Biroq Sankt-Peterburg hukumati o'z tashqi siyosatida Sin imperiyasi bilan munosabatlarni birinchi o'ringa qo'yganligini ko'ramiz va Yoqub-bek hokimiyatining barqarorligiga shubha bilan qarab, uni huquqiy jihatdan tan olishga shoshilmaydi. Bunday vaziyatda Yoqub-bek Rossiya va Angliya o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalanish taktikasi orqali harakat qila boshladi. U o'z elchisi Shodi Mirzoni



Hindiston vitse-qiroli va Usmonli turk sultoni huzuriga yubordi. Turk sultoni Abdul-Aziz unga Qashgʻar amiri unvonini beradi. Britaniya hukumati esa oʻz navbatida ushbu vaziyatdan Rossiyaga qarshi foydalanishga harakat qiladi. 1869-yildan boshlab Qashgʻarga ingliz vakillari birin-ketin tashrif buyurishni boshlaganlar. Rossiya imperiyasini ushbu hududlardan uzoqroq tutish maqsadida London diplomatik yoʻllar bilan neytral hududlar tashkil etishni taklif qildi. Biroq, inglizlarning asosiy maqsadi bu hududni oʻz taʼsiri ostiga olish va Yoqub-bek armiyasini zamonaviy qurollar bilan taʼminlash edi. Rossiya imperiyasi esa Yettishar bilan aloqalarni rasmiylashtirish va uning Angliya bilan haddan tashqari yaqinlashib ketishining oldingi olish maqsadida 1872-yil 15-mayda polkovnik A.V. Kaulbars boshchiligida rus-qashgʻar savdo shartnomasini imzoladi. Ushbu shartnomaga koʻra, Rossiya imperiyasi fuqarolariga Yettishar shaharlarida erkin savdo qilish, karvonsaroylar ochish, savdo agentlarini tayinlash huquqi berilib boj miqdori esa tovar qiymatining 2,5% foizidan oshmasligi belgilandi. Britaniya esa bunga javoban 1874-yilda oʻzining savdo shartnomasini imzolashga muvaffaq boʻladi. XIX asrning oxiriga kelib, Yoqub-bek davlati tugatilib, Sin hukmronligi qayta tiklangan boʻlsa-da, Rossiyaning Qashgʻariya bilan savdo aloqalari izchil rivojlanishda davom etib borgan. 1881-yilgi Sankt-Peterburg shartnomasi asosida chegarada beshta Bedel, Terek, Turgʻart, Suyak va Irkeshtom savdo oʻtish punktlari belgilandi. Rossiya bilan savdo aylanmasida Qashgʻar va Oqsu shaharlari asosiy tovar tarqatuvchi markazlar rolini oʻynadi. Rossiya Sharqiy Turkiston hududida savdo aloqalarini rivojlantirishdagi saʼy-harakatlari natijasida 1891-yildan 1900-yilgacha boʻlgan oʻn yillik davrda rus-qashgʻar savdosi ikki barobardan ziyod oʻsdi va Rossiya tashqi savdoda mutlaq birinchi oʻrinni egalladi. Savdo hajmining oʻsish dinamikasi holatini quyidagi jadvalda koʻrishimiz mumkin.

Yillar Rossiyadan import (ming rubl) Rossiyaga eksport (ming rubl)

Umumiy aylanma (ming rubl)

1891	994 1178	2172
1892	932 1086	2018
1893	1160	1411 2571
1894	1 254	1 627 2 881
1895	1 133	1748 2 593
1896	1 350	1 748 3 098
1897	1 386	1 716 3 102
1898	1 573	2 052 3 625
1899	1 454	2 201 3 655
1900	1 715	2 989 4 704



Ushbu statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, savdo aylanmasining deyarli doimiy o'sishiga qaramasdan, Rossiya uchun noqulay savdo balansi yuzaga keldi. Rossiyadan import qilinadigan tovarlar hajmi 1900-yilda 1,71 mln rublni tashkil etgan bo'lsa, Qashg'ardan eksport qilingan tovarlar miqdori 2,98 mln rublga yetgan. O'rtadagi farq esa 1,27 mln rubldan oshib ketadi, bu esa Rossiyadan Qashg'ariyaga har yili 1 million rubldan ortiq naqd oltin va kumush tangalar ko'rinishida chiqib ketishini anglatardi. Rossiyadan import tarkibida rus fabrika sanoati mahsulotlari mutlaq ustunlikni o'z qo'liga oladi (80.0%), Qashg'ardan eksportda esa paxta-mato gazlamalar birinchi o'rinda turgan (67.6%). Rossiya- Qashg'ar o'rtasida savdo aloqalari rivojlanar ekan, Britaniya imperiyasi rus tovarlarining ustunligini kamaytirish uchun qattiq harakat qiladi, biroq ularning asosiy muammosi og'ir va qiyin tog' logistikasi edi. Qashg'ariyaning Ladak orqali olib boradigan savdo yo'llari o'ta og'ir iqlim sharoitida, baland va cho'l tog'lik hudud Tibet orqali o'tgan bo'lib, transport xarajatlarini keskin oshirib yuborardi. Masalan, Yorkenddan Lexgacha bo'lgan masofa 30 kunlik karvon yo'lini tashkil qilgan bo'lsa, O'shdan Qashg'argacha bo'lgan yo'l bor-yo'g'i 16–18 kunlik yo'l edi. To'lov miqdori Yorkenddan Lexgacha 1 pud uchun 4–5 rubl, Xo'tandan esa 8–10 rublgacha etgan. Natijada, Ladak orqali amalga oshiriladigan ingliz savdosi doimiy inqirozga yuz tutib borgan: 1895-yilda savdo aylanmasi 4 million rublgacha etgan bo'lsa, 1898-yilda u 2,38 million rublga tushib ketadi. Keyingi yillarda Rossiya konsulligi ma'lumotlariga ko'ra, u atigi 650-1000 ming rublni tashkil qilgan xolos. Bunday murakkab sharoitda inglizlar yanada qulay va qisqa yo'llarni qidirib, Kanjut (hozirgi Pokistonning shimoliy) hududiga e'tibor qaratadilar. Kanjut o'z nazoratiga olingach, inglizlar savdogarlarga turli imtiyozlar berishni boshladilar. Ushbu hudud harbiy-strategik nuqtai nazardan ham o'ta muhim edi. Britaniya bosh shtabi generali Ch.M. Mak-Gregor o'zining «Hindiston mudofaasi» asarida «agar Rossiya armiyasi Mustag dovoni orqali o'tib, u yerda harbiy yo'l qura olsa, u holda rus qo'shinlari Kashmirning yuragiga osongina kirib borishi mumkin»- degan edi. Shuning uchun ham inglizlar Kanjut va Qashg'arda o'z konsulligini tezroq ta'sis etish orqali rus iqtisodiy va harbiy ekspansiyasiga to'siq qo'yishga intilishgan. XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi geosiyosiy va iqtisodiy raqobatning markaziy maydonlaridan biriga aylandi deb ayta olamiz. Yoqub-bek o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun har ikki imperiya o'rtasida ayyorlik bilan balans siyosatini olib borganligini ko'ramiz va qurol-yarog' yetkazib beruvchi ittifoqchi sifatida inglizlarga tayandi. Rossiya esa ehtiyotkorona siyosat yuritib, savdo-sotiq shartnomalari (Kaulbars missiyasi) orqali mintaqa bozorida o'zining uzoq muddatli iqtisodiy ustunligini ta'minlash yo'lini tanladi. Yakuniy



tahlillar shuni ko'rsatadiki, hatto logistik jihatdan og'ir sharoitlarda ham rus tovarlari (ayniqsa yengil sanoat mahsulotlari) mintaqada o'zining yaqin masofadagi mavqei tufayli ingliz tovarlari bilan raqobatda g'olib chiqadi. Qashg'ariya bilan savdo Rossiya uchun iqtisodiy jihatdan qimmatli xomashyo manbaini bersa-da, valyuta chiqib ketishi muammosi mavjudligicha qolavergan. O'z navbatida, Britaniya imperiyasi strategik xavfsizlik va logistik inqiroz tufayli yangi yo'llarni va Kanjut kabi tayanch nuqtalarini qo'lga kiritish orqali o'z xavfsizligini kafolatlashga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. А.П. Субботин «Россия и Англия на Среднеазиатских рынках: историко-экономический этюд»- СПб.: Издание редакции «Экономического журнала», 1885год- 85-с.
2. Ч.М. Мак-Грегор - «Оборона Индии». Часть I // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. – Вып. XLIII. – Санкт-Петербург: Военная типография, 1891. – 278 с
3. Л.Г. Корнилов - «Кашгария или Восточный Туркестан»- Опыт военно статистического описание. Ташкент. Типография Штаба Туркестанского военного округа., 1903-г – 312-322-стр
4. Н.А.Халфин- Политика России в Средней Азии (1847-1868) Москва -1960 год. С-272